

# "O'zkiyosanoat" AJ Xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti "Eng namunali boshlang'ich tashkilot - 2022" respublika tanlovida faxrli 2-o`rinni qo'lga kiritdi

// 26 December 2022 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/eng-namunali-boshlangich-tashkilot-2022>



Joriy yil 26-dekabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan, 4600 dan ortiq ishtirokchilarni qamrab olgan "Eng namunali boshlang'ich tashkilot - 2022" respublika tanlovida "O'zkiyosanoat" AJ xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi Sanobar Abduraxmanovaning ish faoliyati faxrli 2-o'ringa munosib ko'rildi.

Ta'kidlash joizki, "O'zkiyosanoat" Ajda xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti mamlakatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan xalqchil islohotlarga mos ravishda faoliyat olib bormoqda. Qator Farmon va qarorlarning ijrosi so'zsiz ta'minlanmoqda. Ushbu faoliyat Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan e'tirof etildi. Bu jamiyatimizda xotin-qizlarga bo'lgan e'tiborning samarasidir.

Shuningdek, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan mehnat jamoalaridagi boshlang'ich tashkilotlar o'rtasida o'tkazilgan "Eng namunali boshlang'ich tashkiloti - 2022" ko'rik-tanlovining "Eng namunali korxonalar boshlang'ich tashkiloti" nominatsiyasida Qashqadaryo viloyati bo'yicha "Dehqonobod kaliy

zavodi" AJ xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi Muxtasar Karimova g'oliblikni qo'lga kiritib, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**“Аёли эъвозланган юрт!”**

НОМЛИ

**“Йил аёли”**

**“Энг наминали тадбиркор”**

**“Энг наминали хотин-қизлар башланг'ич ташкилоти”**

**“Тадбиркорларнинг грант лойихалари”**

КУРИК-ТАНЛОВЛАРИНИ  
РЕСПУБЛИКА БОСҚИЧИ ҒОЛИБЛАРИНИ  
ТАШ МАРОСИМИ

**2022**

“O'zkiyosanoat” AJ  
MATBUOT XIZMATI

[f](#) [@](#) [uzkiyosanoat](#)

[globe](#) [@](#) [uzkiyosanoat.uz](#)

[phone](#) (+99878) 140-74-26





